



YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BO‘YICHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarining sifatini yaxshilash masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Hududlardagi iqtisodiy o‘rnatish, oziq-ovqat xavfsizligi, ish o‘rinlari va investitsiya oqimi, avvalo, yerga bog‘liq. Oxirgi uch yilda raqamlashtirish hisobiga 40 million gektar yoki jami yerlarning 90 foizi kadastrda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Shu bilan birga, 44 million 800 ming gektar yer maydoni, 8 million 300 mingta bino va inshooting mulk sifatidagi bozor bahosi hisoblanmagan. Hozirda mavjud bino va inshooting shartli kadastr qiymati 70 milliard dollarni tashkil qiladi. Aslida, ularning haqiqiy bozor bahosi bundan kamida 4-5 barobar ko‘p. Bunga yerning bozor qiymati ham qo‘shilsa, katta “iqtisodiy aktiv” bo‘ladi.

Sohada zamonaviy aerofotokamera va dronlar qo‘llanayotgani natijasida ko‘p zaxiralari aniqlanmoqda. Masalan, Qarshi tumani-da ekin yerlari 45 ming gektar deb ko‘rsatib kelinayotgan bo‘lsa-da, hisobotda yaylov bo‘lib turgan 5 ming 100 gektar maydon ham aslida sug‘oriladigan yer ekanligi aniqlandi. Bu byudjetga qancha tushum, qancha ish o‘rni va daromad yo‘qotilyapti, degani.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligida 286 ming gektar yerning huquq belgilovchi hujjatlari to‘liq emas. Doimiy foydalanish uchun ajratilgan 460 ming gektar yerning huquqiy maqomi aniq emas. 159 ming gektar yerning hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladi.

Oqibatda, jami 900 ming gektardan ziyod qishloq xo‘jaligi yerlari kadastr ro‘yxatidan o‘tmasdan turibdi. Kadastr ro‘yig‘i sababli ularni takroriy ekinlar uchun rasman ikkilamchi ijara berish imkoni bo‘lmayapti. Bular tufayli kamida 300 ming ish o‘rni, takroriy ekinlardan olinayotgan mahsulot hamda norasmiy ijara bo‘yicha yuritilmayapti.

Shu bois, bunday yerlar samaradorligini o‘rganish vazifasi qo‘yildi. Agar dehqon va fermerlar yerdan unumli foydalanayotgan bo‘lsa, ular bilan ijara shartnomasi tuziladi va kadastr ro‘yxatiga olinadi. Aksincha, oqilona ishlatilmayotgan yerlar hokimlik zaxirasiga qaytariladi.

Mutasaddi vazirliklarga ushbu tizimni amaliyotga joriy qilish, kelgusi yil aerosuratga olish va qishloq xo‘jaligi yerlari kadastrini to‘liq yakunlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan haftada Surxondaryo tashrif chog‘ida eksportbop sabzavotlar ekish imkoniyatlarini aytgan edi. Hududlarda buni istovchi yurtdoshlarimiz ko‘p.

Shu bois, har bir tumanda eksportbop sabzavot eka bo‘ladigan kamida 100 gektardan bo‘sh yerlar ajratilishi belgilandi. Bu bo‘yicha taqdimotlar o‘tkaziladi, mahsulot yetishtiruvchilar “fermerlar maktabi”da o‘qitiladi. Hosildor urug‘lar kafolatli yetkazib beriladi. Ekin yeri “ishning ko‘zini biladigan”, eksport ko‘nikmalariga ega insonlarga aukcion orqali ijara huquqi bilan sotiladi.

Yig‘ilishda yer hisobini to‘g‘ri yuritish masalasiga e‘tibor qaratildi.

Bugungi kunda 817 ming gektar yer aholi yashash joyi va sanoat hududiga aylani

ketgan, ammo hisobotlarda qishloq xo‘jaligi yerlari toifasida turibdi. Kadastr agentligi va hokimliklarga bu noaniqliklarni hal qilish, amaldagi “yer balansini” hisobotda to‘g‘ri aks ettirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Suv xo‘jaligida ham hujjati yo‘q ko‘p yerlar bor. Ulardan qo‘shimcha iqtisodiy samara olishning yo‘li — to‘liq kadastrdan o‘tkazish. Bir so‘z bilan aytganda, bu — ish o‘rni uchun ham, oziq-ovqat uchun ham qo‘shimcha zaxira.

Shu bois, kanal va kollektorlar, tabiiy ko‘l va daryolar oldidagi yerlarni hujjatlashtirib, aholiga eksportbop ekinlar uchun berish vazifasi qo‘yildi.

Yo‘l xo‘jaligida muayyan ichki yo‘llar va unga tutash yerlarda hujjat yo‘q. Masalan, Qoraqalpog‘iston va Xorazmda ichki yo‘llar chegarasini belgilash vaqtida auktionsga chiqarsa bo‘ladigan 2 ming 700 dan ziyod bo‘sh yer uchastkasi aniqlangan. Shu bois, kelgusi yil “Tashabbusli byudjet” va “Mening yo‘lim” loyihalari doirasida ichki yo‘llarning kadastr hujjatini tayyorlash ham nazarda tutiladi.

Yig‘ilishda yerlardan samarali foydalanish masalasi atroflicha tahlil qilindi.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, oxirgi besh yilda qishloq xo‘jaligidan 42,5 ming gektarni qisqartirib, aholi punktlari va sanoat yerlari toifasiga o‘tkazildi. Lekin viloyat, tuman va shahar hokimlari ulardan samarali foydalana olmayapti. Xususan, 100 ta tumanda toifasi o‘zgarigan 17,5 ming gektar yer na tadbirkorlarga berilgan, na auktionsga chiqarilgan. Sanoat zonalarida ham bo‘sh yerlar bor. Oqibatda milliardlab so‘m byudjet tushumi yo‘qotilgan.

Hokimlarga bu boradagi ishlarni jadallashtirish bo‘yicha qat‘iy ko‘rsatmalar berildi.

Kadastr sohasi uchun kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish ham muhim vazifalardan. Bugungi kunda bu boradagi o‘qitish sifati talab darajasida emas. Ayrim fakultet va kafedralar nomiga ochilgan, o‘quv dasturlari zamondan orqada qolgan.

Shu bois, ularda zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish, yangi o‘quv adabiyotlari va xorijdan malakali mutaxassislar olib kelish zarurigi ta‘kidlandi.

Yig‘ilish yakunida vazirlik, hokimlik va idoralaridagi ijro intizomi holatiga to‘xtalib o‘tiladi.

— Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Hech bir soha e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Lekin islohotlar “qog‘ozda” qolib ketmasligi kerak. Vazirlik va tarmoq rahbarlari, hokimlar joylarda ularning ijrosini so‘zsiz ta‘minlashi shart, — dedi Prezident.

Ayrim rahbarlar raqam ortidan quvib, sifat, samaradorlik va talabchanlikni susaytirgani ko‘rsatib o‘tiladi. Ijro intizomini ta‘minlash, barcha dastur, “yo‘l xaritasi” va loyihalarni o‘z muddatida bajarish lozimligi qat‘iy ta‘kidlandi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti tinglandi.

O‘ZA

METROPOLITENDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-noyabr kuni Toshkent metropolitenida xizmatlar sifatini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda metropoliten qamrovini kengaytirish maqsadida qo‘shimcha 32 kilometr yo‘l qurildi, 21 ta yangi stansiya ishga tushirildi. 15 ta zamonaviy metro poyezdlari olib kelindi. Yangi yo‘nalishlar poytaxtimizning Yashnabod, Mirobod, Sergeli, Yangiyahoyot va Yunusobod tumanlaridan o‘tib, aholining kundalik qatnoviga qulaylik yaratdi.

Bugungi kunda metropoliten foydalanadigan yo‘lovchilar soni 5 barobar oshib, kunlik qatnov 720 mingtaga yetdi. Kunning tig‘iz paytida poyezdlar kelish vaqti avvalgi 5-7 daqiqadan 2 daqiqagacha qisqardi.

O‘ZA

NUQTAYI NAZAR

Bugun jahon iqtisodiyotida keskin raqobat muhiti ustuvor. Jamiyat talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti ham keskin raqobatdan xoli emas. Bunda, shubhasiz, bank tizimining roli yuqori.

TRANSFORMATSIIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH

BANK TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY TALABI

Tijorat banklari faoliyati biznesga asoslangani bois, ular samaradorligini ta‘minlash na faqat milliy, balki xorijiy tijorat banklari hamda hukumatlarning ham doimiy diqqat markazidagi masalalardan biridir. Bunda esa o‘z-o‘zidan bank tizimining transformatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotidagi moliyalashtirish va raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston milliy bank tizimi transformatsiyasi borasida so‘nggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Bu haqda Prezidentimiz raisligida shu yil 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari mu-

kasami bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Jumladan, sohani isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so‘nggi uch yilda banklar kapitali 1,8, yillik kredit ajratish hajmi esa 2 barobar ko‘paydi. 4 ta bank ilk bor “yevrobond” chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. Ipoteka-bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog‘iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobar oshdi.

Davomi 2-betda

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI MUHOKAMA QILINDI

21-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi do‘stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat yetakchilarining joriy yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi yig‘ilishi doirasida o‘tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Turli hamkorlik formatlarida faol muloqot va almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Yetakchi kompaniyalarning kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish hamda Janubiy Koreyaning bank-moliya institutlari bilan yangi sheriklik dasturini shakllantirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Qo‘shma Hukumatlararo qo‘mitaning navbatdagi yig‘ilishini joriy yil oxirigacha o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Prezidentlari bo‘ljak olib darajadagi tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

O‘ZA

KEKSALAR UCHUN TURIZM OYLI

HIKMATLARDA YASHASAK...

HAR LAHZA XOTIRJAMLIK VA QUT-BARAKA OLIB KELADI

Yurtimizda uch avlod vakillari — bobo-buvi, ota-ona va nabiralar jamuljam bo‘lib yashaydigan oilalar ko‘p. Bunday xonadonlarda har kun yoziladigan dasturxon atrofida tabarruk nuroniyalarimiz doimo davra to‘rida qo‘r to‘kib o‘tiradi. Dasturxonga ne‘matlar tortilgach, oila a‘zolari yoshi ulug‘lar taomga qo‘l uzatishini kutib turadi. Ko‘pni ko‘rgan, hayotning achchiq-chuchugini tatigan kayvonilarimiz, avvalo, shu ne‘matlarga yetkazganiga shukr qiladi.

Davomi 3-betda



MUNOSABAT

SURXON VOHASIGA UCHINCHI TASHRIF

BU MUAMMOLAR KO‘LAMIGA BOG‘LIQMI YOXUD O‘ZGARISHLAR SHIDDATI BILAN?



Prezidentimiz 16-17-noyabr kunlari hududlar iqtisodiyoti, muhim ijtimoiy dasturlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatida bo‘ldi. E‘tiborli jihati, bu davlatimiz rahbarining joriy yilning o‘zida janubiy viloyatga uchinchi tashrif hisoblanadi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: bir yilda vohaga uch bor tashrifning boisi muammolar ko‘lami bilan bog‘liqmi yoki o‘zgarishlar shiddati bilan?

Davlatimiz rahbari raisligida 17-noyabr kuni Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu savolga bilvosita javoblar berildi.

Davomi 2-betda

ULKAN NATIJALAR SARI

SUV SPORTI



So‘nggi yillarda suv sporti ham ommaviy sport turlari sirasiga kirib bormoqda. Jumladan, XIX yozgi Osiyo o‘yinlarida baydarka, akademik va kanoeda eshkak eshish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zbekistonlik sportchilar qayd etgan yuqori natijalar umumiy ko‘rsatkichlarga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Xo‘sh, aslida, suv sporti qachon paydo bo‘lgan? Uning tarixi qanday? Bu sport turi O‘zbekistonga qaysi davrda kirib keldi? Soha-ga qaratilayotgan e‘tibor hamda erishilayotgan natijalar qanday?

SUV SPORTI YURTIMIZDA QACHON PAYDO BO‘LGAN?

Erarnidam avvalgi IV ming yillikka tegishli bo‘lgan, krol va brass usullariga o‘xshash tarzda suzayotgan odamlar tasviri aks etgan arxeologik topilmalar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Masalan, qadimgi yunonlar suzishga katta e‘tibor berganini Platonning quyidagi mashhur so‘zlari ham tasdiqlaydi: “Donishmandlikning aksi hisoblangan — suzish va o‘qishni bilmaydigan kishilarga mas‘uliyatli vazifani ishonib topshirish mumkinmi?” Afinada suzishni bilmagan odamlar nuqsonli hisoblangan.

Davomi 5-betda

NUQTAYI NAZAR

TRANSFORMATSIIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH BANK TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY TALABI



Samariddin ELMIRZAYEV, Bank-moliya akademiyasi kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Tahlilarga ko'ra, 2010-yillardan boshlab moliyaviy texnologiyalarga asoslangan Fin-tech kompaniyalari jahon moliya bozorida faollashdi. 2018-yilga kelib, bunday kompaniyalar raqamli amaliyotlar tufayli yuqori samaradorlikka ega ekanini namoyon etib, ma'lum bir moliyaviy amaliyotlar bo'yicha tijorat banklari bilan raqobatlasha boshladi. Shunday bir sharoitda tijorat banklari raqamli transformatsiyasi zarurati kun tartibiga chiqdi. Natijada tijorat banklari tomonidan Fin-tech kompaniyalarini qo'shib olish yoki moliyaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli bank mahsulotlarini joriy etish keskin rivojlandi. Ushbu jarayonda global pandemiya sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatish zarurati ham ijobiy ta'sir etdi.

Xorij an'anaviy banklarining yuqori sur'atda raqamli banklarga transformatsiyalashuvi sharoitida mam-

lakatimizdagi tijorat banklari transformatsiyasi global raqobatga kirishishda muhimdir. Bunda xususiy banklar transformatsiyasi, asosan, raqamli transformatsiyaga yo'naltirilsa, davlat ishtirokidagi tijorat banklari transformatsiyasi ikkita yo'nalishda tashkil etiladi. Bular, birinchisi, bank aktivlarida xususiy banklarning ulushini keskin oshirishga erishish, ikkinchisi, raqamli transformatsiya amaliyotidir.

Ayni yo'nalishlarda, yuqorida qayd etilganidek, tizimli ishlar olib borilmoqda. Bank tizimida xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan alohida maqsad ijrosi tomon intilishni o'zida namoyon qiladi. Shuningdek, onlayn bank xizmatlari hajmining 2,7 barobar oshgani bank tizimi raqamli transformatsiyasidagi dastlabki natijalardir.

Shunga qaramasdan, bu jarayonda e'tibor qaratilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlardan hamon mavjud. Qolaversa, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan banklarni xususiy lashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy etish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish kabi vazifalar ijrosini ta'minlashda bank tizimi transformatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Respublikamizda 2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, umumiy bank aktivlarida davlat ishtirokidagi banklar ulushi 69 foizni tashkil qilmoqda. Tijorat banklari kapitalida esa 67 foiz davlat ulushi. Davlat ishtirokidagi banklar faqatgina 35 foiz kredit depozitlar bilan ta'minlangan, qolgan 65 foiz kreditlar

esa davlat resurslari hisobidan amalga oshirilgan. Mana shunday sharoitda xususiy banklar rentabelligi davlat ishtirokidagi banklar rentabelligiga nisbatan 3,5-4 barobar yuqori.

2023-yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, tijorat banklari 8,2 trillion so'm sof foydaga erishgan. Bunda e'tiborni tartidagi jihat shundaki, aynan 8 ta xususiy



tijorat banki eng yuqori foydaga erishgan 10 ta tijorat banki ro'yxatidan joy olgan. Xususan, "Kapitalbank" 1 trillion 129 milliard so'mlik sof foydaga erishgan bo'lsa, "Hamkorbank" 915,2 milliard, "Trastbank" 595,5 milliard so'mlik sof foyda bilan dastlabki to'qqiz oyni yakunlagan. Ulardan faqatgina "O'zmilliybank" foydasi yuqori bo'lib, 1 trillion 244 milliard so'mlik foydaga erishgan. Vaholanki, xususiy banklar kapitali miqdori davlat ishtirokidagi banklar kapitaliga nisbatan keskin past. Buni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Mazkur raqamning o'ziyoq davlat ishtirokidagi banklar faoliyati samarasiz pastligi va bank tizimida xususiy sektor samaradorligi yuqori ekanini tasdiqlaydi. Va o'z-o'zidan tijorat banklari kapitalidagi davlat ulushini xususiy lashtirish zaruratining naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

Yig'ilishda davlat ulushiga ega tijorat banklarini xususiy lashtirishga tayyorlash, ularning qimmatli qog'ozlarini IPOga chiqarish borasida ham takliflar bildirildi. Bu borada xalqaro moliya institutlari allaqachon jalb qilingan. Bank aksiyalarini IPOga chiqarish orqali aholini investor, ya'ni aksiyadorga aylantirish, pirovardida

esa yurtdoshlarimizning aksiyalar vositasida daromadga ega bo'lishini ta'minlash istiqbolda ularning turmush farovonligi yuksalishiga ham xizmat qiladi. Bunday ezgu maqsadga erishish uchun banklar investitsion jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Shuni alohida qayd etish kerakki, davlat ishtirokidagi banklar aksiyalari "Toshkent" respublika fond birjasida nominal qiymatdan ham past darajada sotilayotgan bir vaqtda xususiy banklar aksiyalari o'z nominal qiymatidan bir necha barobar yuqori sotilmoqda.

Davlat ishtirokidagi banklar aksiyalari investitsion jozibadorligini ta'minlash, aholi va investorlar qiziqishini oshirish maqsadida, birinchi navbatda, qonunchiligidagi belgilanganidek, sof foydaning kamida 50 foizini dividenda yo'naltirish asosida aholining aksiyalar-

ga qiziqishini oshirib borish muhim. Shuningdek, xususiy banklar tomonidan qo'llanayotgan choraklik yoki yarim yillik dividendlar to'lash amaliyotini davlat ishtirokidagi banklarda ham qo'llash bevosita aholining tijorat banklari aksiyalariga qiziqishini keskin oshirish bilan birga, davlat ulushini yuqori qiymatda xususiy lashtirishga ham imkon beradi.

Boshqa tomondan esa banklar aksiyalarining dividend tarzidagi daromadi ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori-ning rivojlanishiga xizmat qilishi natijasida aholi va investorlar aksiyalarning bozor bahosi oshishidan ham daromadga ega bo'ladi. Pirovardida davlat ishtirokidagi tijorat banklarida ham aksiyalar vositasida arzon moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati ortadi. Ya'ni biz ko'pincha guvoh bo'layotgan aksiyalar nominal qiymatda joylashtirish orqali faqatgina ustav kapitalini oshirishga erishish o'rniga aksiyalarni nominaldan yuqori bozor bahosida joylashtirish hisobiga ham ustav kapitali, ham qo'shilgan kapitalni oshirish imkoniyatiga erishiladi.

Bu borada xorijiy banklar faoliyati tahlil qilinganda, ular xususiy kapitalida ustav kapitali bor-yo'gi 7-10 foizni tashkil etishi, qo'shilgan kapital, xususan, emission daromad 70-80 foiz atrofida ekaniga guvoh bo'lamiliz. Afsuski, bizda davlat ishtirokidagi tijorat banklari xususiy kapitali tarkibida aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori bozor bahosida joylashtirish hisobiga shakllanadigan qo'shilgan kapital miqdori 5 foizga ham yetmaydi. Bu holat o'z-o'zidan aksiyalar afzalligidan davlat ishtirokidagi banklar yetarlicha foydalanolmayotganini ko'rsatadi.

Ayni yo'nalishda ham xususiy banklar amaliyoti ancha samarali. Banklar, umuman, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi ta'minlanishidan, birinchi navbatda, tijorat banklari va boshqa aksiyadorlik jamiyatlarini manfaatdor. Keyin esa investorlar, xususan, o'z jamg'armalarini aksiyalarga yo'naltiradigan aholi manfaatdorligi namoyon bo'ladi. Va bundan moliya bozori rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyot faqat va faqat yutadi.

Investitsion jozibadorlik ta'minlangan holatdagina tijorat banklari tomonidan o'tkazilishi kutilayotgan aksiyalarni aholi o'rtasida ommaviy joylashtirish, ya'ni xalqchil IPO amaliyotining muvaffaqiyatli rafordananadi.

Shu o'ralda yana bir jihatni ta'kidlash lozim. Mamlakatimizda real sektor

korxonalarini tomonidan o'tkazilgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti yakunlangach, investorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar davom ettirildi, deya olmaymiz. Mazkur jihat xalqchil IPO amaliyotiga, aholining qiziqishini kamayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tijorat banklari tomonidan xalqchil IPO o'tkazish jarayonida aksiyalar ommaviy joylashtirilganidan keyin ham aksiyadorga aylangan investorlar — aholi bilan dividendlar vositasida munosabatlar o'zaro manfaatli tarzda amalga oshirilishiga ishonim uyg'ota olishi va unga amal qilish lozim bo'ladi. Bunda banklar tomonidan hisobot davri yakunlari bo'yicha inflyatsiya omilini hisobga olgan holda bozor daromadligidan kelib chiqib, dividendlar to'lab borilishi, birinchi navbatda, investorlar roziligiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, banklarning qo'shimcha arzon moliyaviy resurs jalb qilishga qaratilgan qo'shimcha aksiyalari chiqarilishi va ularning muvaffaqiyatli joylashtirilishida o'ziga xos reklama vazifasini ham o'tab beradi.

Alohida ta'kidlash lozimki, raqamli transformatsiya samaradorligi tijorat banklarida aksiyadorlik kapitaliga egalik holatidan kelib chiqqan holda farq qiladi. Ya'ni xususiy banklar raqamli transformatsiyasi operatsion xarajatlarning keskin qisqartirishga xizmat qilmoqda va bu, o'z navbatida, sof foydaning o'shishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari raqamli transformatsiyasi esa operatsion xarajatlarning jiddiy ravishda kamayishiga olib kelmayapti. Bundan o'z-o'zidan bank tizimi transformatsiyasida mulkka egalikning davlatdan xususiy sektorga transformatsiyasi birlamchi ekani namoyon bo'ladi. Shu bois, bank tizimini xususiy lashtirish va xususiy banklarning moliya bozorida faolligini oshirish oxir-oqibat tizim samaradorligi o'shishiga xizmat qiladi. Natijada 2030-yilga qadar mamlakatimiz bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlarini hajmini 4 barobar oshirish maqsadlariga erishish imkoniyati ortadi.

Umuman olganda, bank tizimi transformatsiyasi va xususiy lashtirish jarayonini jadallashtirish O'zbekistondagi tijorat banklarining global raqobatga kirishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotni faol moliyalashtirish orqali iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

MUNOSABAT

SURXON VOHASIGA UCHINCHI TASHRIF

Bu muammolar ko'lamiga bog'liqmi yoxud o'zgarishlar shiddati bilan?

Dilfuza JO'RAYEVA, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, "Xalqimiz yaxshi hayot kechirsin, og'iri yengil bo'lsin, deb Surxondaryoga shu yilning o'zida uchinchi marotaba juda katta niyatlar va aniq rejalar bilan keldim", — dedi Prezidentimiz. Viloyat juda katta iqtisodiy salohiyat, yer osti va yer usti boyliklari, mard, mehnatkash xalqiga ega ekaniga alohida e'tibor qaratilib, afsuski, hozircha bu salohiyatning yarmidan ham foydalanilmayotgani, shuning uchun ham hududda zarur sharoitlar yaratib, ish o'rni, investitsiya, eksport va tushumni karra-karra oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Shu bois, kelgusi yili 1,5 milliard dollar miqdorida investitsiya olib kelinib, sanoat yo'nalishida 12 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi. Eksport 500 million dollarga yetkazilib, 100 million dollarlik import qisqartiriladi, asosiysi, 400 ming aholi bandlegini ta'minlash choralarini ko'riladi.

Viloyatga investitsiya jalb qilish va sanoatni rivojlantirish uchun asoslar yaratiladi. Bu, birinchi navbatda, vohadagi mavjud konlarni ishga solish bilan bog'liq. Xususan, Sariosiyoda qo'rg'oshin, rux, oltin va oq marmar, Boysun va Sariosiyoda ko'mir, Sherobodda kaliy o'g'iti zaxiralarni o'zlashtirish yangi quvvatlar barpo etilishi, minglab ish o'rinlarini tashkil qilish orqali viloyat rivojida yangi imkoniyatlar yaratadi. Prezidentimiz yig'ilishda ayni masalalar yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi. Tog'li hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish vazifasi qo'yildi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbari tashrif doirasida viloyat aholisi uchun munosib ish va turmush sharoiti yaratish, iqtisodiyot rivojini yangi bosqichga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan loyihalar

bilan tanishar ekan, ayni yo'nalishda yana bir qator ustuvor vazifalarni belgilab berdi, bu ayni paytda viloyatda kechayotgan ulkan bunyodkorlik jarayoniga yangicha ruh, shiddat berishi bilan ahamiyatlidir. Va haqli ravishda voha ahlining cheksiz quvonchi, ertangi kunga ishonchi yanada mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda.

Darhaqiqat, bugun ko'z o'ngimizda viloyatda bo'layotgan o'zgarishlarni yurtimizning boshqa hududlaridagi bunyodkorliklarga nisbatan salmoqliroq, desam mubolag'a emas. Boisi, kechagi Surxondaryo bugun tanib bo'lmagan darajada zamonaviy qiyofa kasb etib, kundan-kunga rivojlanayotgan, tamomila bunyodkorlik avj olgan hududga aylangan kishini quvontiradi.

Surxon vohasida ko'plab sanoat korxonalarini ishga tushirayotgani, yangidan yangi zamonaviy maktab va shifoxonalar qad rostlayotgani, ayniqsa, mahallalarning tobora obod bo'lib borayotgani zamirida, eng avvallo, inson qadriini ulug'lash va uning munosib hayot kechirishini ta'minlashdek ezgu maqsadlar mujassam.

ZAMONAVIY LOYIHALAR ISTIQBOLI

Viloyat miqyosida joriy yil davlat dasturlari asosida 942 million dollarlik loyihalarga qo'shimcha ravishda 420 million dollarlik 100 ta loyiha hayotga tatbiq etildi. Natijada 30 mingta yangi ish o'rni tashkil qilindi. Shuningdek, Oltinsoy va Denov tumanlarida qiymati 150 million dollarlik 5 ta loyiha doirasida ko'mir qazib olish yo'lga qo'yilib, nafaqat viloyatning ko'mirga talabini qondirish, balki eksport imkoniyati yaratilmoqda.

Termiz tumanida bazalt xomashyosidan mineral vata hamda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarilishi boshlandi. Sherobod tumanida esa kaliy zaxiralardan foydalanib, salohiyatli xorijiy investorlar tomonidan 700 million dollarlik investitsiya jalb qilinishi hisobiga yiliga 1 million tonna kaliy ishlab

chiqarish quvvatiga ega 3 ta yirik korxonaga barpo etiladi.

Hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida joriy yilning o'zida 1 ming 600 kilometrdan ortiq ichki yo'llar ta'mirlandi. Jumladan, 404,8 kilometr ichki yo'llarga asfalt, 1 ming 171 kilometrta shag'al yotqizildi. Hozirgi kunda viloyat bo'yicha 377 ta transformator o'rnatish va 823 kilometr yangi tarmoqlar tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Termiz shahri, Sariosiyo, Denov, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Sho'rchi tumanlaridagi yuqori kuchlanishli podstantsiyalar rekonstruksiyasi ham yakuniy bosqichda.

Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada ham viloyatda xayriy ishlar qilinmoqda. Chunki 850 kilometrdan ortiq ichimlik suv tarmog'i va 250 ta suv inshooti-ni qurish orqali 87 ming nafar aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilanadi. Shuningdek, 77 ming nafar aholi xonadoniga ilk bor markazlashgan ichimlik suv yetkazib beriladi.

Viloyatga bu galgi tashrif doirasida ayni yo'nalishdagi yirik loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirildi. Ma'lumki, Prezidentimiz 2021-yili "To'palang" suv ombori aholini ichimlik suv bilan ta'minlash borasida ulkan va toza manba ekanini ta'kidlab, uni aholiga yetkazish bo'yicha loyiha tayyorlash vazifasini qo'ygan edi.

Mazkur topshiriq asosida ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra, suv omboridan to Termiz shahrigacha 380 kilometr metall quvurlar tortiladi. Uning 159 kilometri magistral, 221 kilometri shahar va tumanlarni bog'lovchi ichki tarmoqlardir. Shuningdek, suv tozalash, bosimini kamaytirish va suv yig'ish inshootlari quriladi.

Bugungi kunda 147 kilometr quvur tortib bo'lindi. Suv tozalash, bosimini kamaytirish va 5 ta suv yig'ish inshooti barpo etildi.

Loyihaning shaxsan davlatimiz rahbari ishtirokida ishga tushirilgan birinchi bosqichida suv Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va



Qumqo'rg'on tumanlariga yetib bordi. Bu orqali viloyatimiz aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan qamrovi 70 foizga yetdi.

OZIQ-OVQAT BARQARORLIGIDAN KO'NGLIMIZ TO'Q

Biz hozir iqlim o'zgarishlari hamda butun dunyo bo'ylab murakkab vaziyat yuzaga kelgan bir davrda yashaymiz. Tabiiyki, bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish muhim masala hisoblanadi. Ayni vaziyatda, albatta, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish, bu turdagi mahsulotlar eksportini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Qishloq xo'jaligi masalasini alohida e'tiborga olib, tez-tez muhokama qilib borayotganimiz bejiz emas. Chunki bu iqtisodiyotimizning ortdan bir qismini tashkil

qiladigan muhim soha. Buning zamirida xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, qancha ish o'rinlari yotibdi".

Viloyatimizda ushbu soha ham mutasaddilarning doimiy e'tiborida. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, keyingi bir-ikki yil ichida Muzebrat va Sherobod tumanlaridagi uzoq yillardan buyon foydalanilmay yotgan 35 ming gektar yer maydoni qayta o'zlashtirildi. Bu yerlarda paxta, g'alla va sholi yetishtirish yo'lga qo'yildi. Xuddi shunday islohotlar samarasi o'laroq, Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlarida ham 20 ming gektar yer maydonini o'zlashtirish hisobiga kartoshka va meva-sabzavot ekinlari yetishtirish ko'zda tutilgan. Albatta, bunday yirik hajmdagi ishlarni amalga oshirishning o'zi bo'lmaydi. Shuning uchun ham mazkur ishga tadbirkorlar keng jalb etilmoqda. Ular tomonidan 100 million dollardan ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilinadi va 20 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi.

XALQARO HAMKORLIK

Viloyatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali aholi turmush darajasini oshirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Masalan, yaqinda viloyat delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib qaytdi. G'oyat samarali o'tgan ana shu tashrif davomida qiymati 727 million dollarlik kelishuvlarga erishildi. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan quvvati 500 megavattlik quyosh elektrostansiyasining birinchi bosqichi joriy yil yakuniga qadar foydalanishga topshirildi.

Bu ham, albatta, odamlarning turmushini yengillashtirishdan tashqari, ularning bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ham hududda salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Natijada yaqin-yaqin qayta ijarama-ijara yurgan yo'li 4-5 oila bir hovlida tiqilib yashagan odamlar o'z uyi, o'z "vatan"iga ega bo'lmoqda. E'tiborli jihat, bunday baxta erishayotgan yurt-doshlarimiz salmoqli yuqori. Birgina joriy yilning o'zida 10 mingdan ortiq xonadonli ko'p qavatli uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirilgani fikrimiz tasdiq'idir.

Yoshlarning sifati ta'lim olishi, o'quvchi-yoshlar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlarga to'xtaladigan bo'lsak, ta'lim muassasalari qurilishi uchun 360 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilishi e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasi bo'ladi. Natijada viloyatda 148 ta maktabda qurilish ta'mirlash ishlari, 22 ta maktabda sport zali, shuningdek, 36 ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bepul ovqat bilan ta'minlanishi ota-onalarning ko'ngligidagi gap bo'ldi.

Gapning sirasini aytganda, bugungi Surxondaryo kechagi Surxon vohasidan yiriklashayotgan iqtisodiyoti, qo'shilgan qiymat zanjiriga asoslangan sanoati, qulay infratuzilmasi, tobora ko'rkamlashib borayotgan shahar va qishloqlari bilan tubdan farq qiladi. Davlatimiz rahbarining 16-17-noyabr kunlari viloyatimizga tashrif doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi esa voha taraqqiyotining yangi rivojlanish bosqichiga asos yaratishi, erta-indin surxondaryoliklarning turmushini bugungiga nisbatan farovon bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

KEKSALAR UCHUN TURIZM OYLI

HIKMATLARDA YASHASAK...

HAR LAHZA XOTIRJAMLIK VA QUT-BARAKA OLIB KELADI

66

Boy tariximiz, madaniy merosimiz, ajdodlarimizning yuksak salohiyatidan xabar beruvchi tarixiy obidalar, qadamjolar, ziyoratgohlar ta'mirlanib, go'zal qiyofa kasb etyapti. Shahar va qishloqlarimiz qaytadan chiroy ochib, zamonaviylashib boryapti. Albatta, hududlardagi bunday o'zgarishlar yurtidoshlarimizni qiziqitirishi, ularni sayohatga chorlashi tabiiy.



Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Chehrasidan donishmandlik ufurib turgan nuroniy har gal nonni peshonasiga, ko'ziga suradi, keyin ohista ushatib, barchaga ulashadi. Bu holat farzandlar va nabiralarning ongida iz qoldiradi. Demak, hayotning har bir ne'mati qimmatli, uning qadriini bilish, borida e'zozlash va isrof qilmaslik insonga halovlatli umr baxsh etadi. So'zi hikmat, hayoti ibrat faxriylarimiz shu taxlit asrlar osha boqiy yashab kelayotgan ezgu qadriyatlarimiz bardavomligini ta'minlash, jamiyatda tinchlik-osoyishtalik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga o'z ulushini qo'shadi.

Munis va mo'tabar nuroniylarning yurtimizga tinchlik, farzandlarga kamolot, xalqimizga rizq-baraka tilab qiladigan duosida ham katta hikmat bor. Shu tufayli yurtimizda totuvlik, osoyishtalik, xotirjamlik, barqarorlik muhiti hukmron. Xalqimizga xos keksalarni e'zozlashdek qadriyat

QIRQ YIL DEGANDA XIVAGA BORDIM

Fazliddin JAMOLOV,
Yakkasaroy tumanidagi "Yakkasaroy" mahalla fuqarolar yig'ini faoli:

— Kasbim pedagog, qirq yildan ziyot ta'lim tizimida va turli davlat idoralarda ishladim. Turmush o'rtog'im bilan 3 farzandni voyaga yetkazdik, 12 nevara, 3 evaraning bobo-buvimimiz. Davlatimiz ardorig'ida, farzandlarimiz mehr-muhabbati og'ushida umrguzaronlik qilayapmiz. Bugun yurtimizda keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor va ehtiromni har kuni, har lahzada his etamiz. Avvalo, sog'lig'imizni mustahkamlash, umrimizga umr qo'shish yo'lidagi imkoniyat va imtiyozlar juda asqotmoqda. Oilaviy poliklinikada muntazam tibbiy ko'rikdan o'tamiz, yo'llanma asosida sihatgohlarda davolanamiz.

Yurtimizda bo'layotgan yangilanish va islohotlar butun xalqimiz qatorida faxriylarga ham o'zgacha yo'shqinlik baxsh etadi. Bu jarayonda nafaqat kuzatuvchi,



azaldan millatni bir-biriga jipslashtirish, mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilganiga ko'hna tariximiz guvoh. Bugungi kunda ham ushbu ezgu qadriyatlar barhayot yashayapti.

Mamlakatimizda keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni sog'lomlashtirishni samarali tashkil etish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy hayotda faolligini oshirish bo'yicha ko'p xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Qator hujjatlar qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar hayotga izchil tatbiq etilayotir.

Jumladan, joylarda keksalar uchun "Nuroniy maskani" majmualari tashkil qilindi. Barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'liq miqdorda to'lash yo'lga qo'yildi. Viloyat, tuman va shaharlarda nuroniy jamaatchilik kengashlari, mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhlari ish boshladi.

Prezidentimizning 2023-yil 11-martdagi "Keksalar avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida bu borada keng qamrovli ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Maxsus chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amalga oshirilayapti.

O'tgan yili 965 ming nuroniy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, 23 ming nafar dori-darmon va oziq-ovqat bilan ta'minlandi. 21 mingdan ortig'i sanatoriylarda sog'lomlashtirildi, 19 ming nafariga reabilitatsiya texnik vositalari berildi, 118 ming nuroniyga boshqa turdagi moddiy yordam ko'rsatildi, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va yakka-yolg'iz keksalardan 221 nafarining uy-joylari ta'minlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yilda qabul qilingan "Keksalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham bu borada muhim dasturilamal bo'lmoqda. Qarorga muvofiq, har yili noyabrda yurtimizda "Keksalar uchun turizm oyli" o'tkazilmoqda. Shuningdek, an'anaviy tarzda "Keksalar salomatligi" haftaliklari tashkil qilib kelinayotir.

O'tgan yili bu yo'nalishdagi tadbirlar doirasida 1 milliondan ortiq nuroniy uchun mamlakatimiz bo'ylab sayohatlar tashkil etildi.

45 MINGDAN ZIYOD NURONIY YURTIMIZ BO'YLAB SAYOHAT QILDI

Joriy yilda ham ushbu tadbirlar yuqori saviyada o'tkazilmoqda. Xususan, bu yo'nalishda poytaxtimizda qator loyihalar amalga oshirilyapti. "Nuroniy" jamg'armasi Toshkent shahar bo'limidan ma'lum qilishlaricha, bu yil 75 mingdan ko'prog keksani yurtimizning turli hududlari bo'ylab ziyorat va safarga olib chiqish rejalashtirilgan.

Poytaxtimizda bugungi kunda uch yuz mingdan ziyod pensioner bor. — deydi "Nuroniy" jamg'armasi Toshkent shahar bo'limi raisi Rustam Kalonov. — Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, munosib hayot kechirishi uchun qulay sharoit yaratish, umriga umr qo'shish, boy hayoti tajribasidan yoshlar tarbiyasida oqilona foydalanish davlatimizning doimiy e'tiborida. Poytaxtimizda ham bu borada izchil ishlar olib borilyapti. Xususan, shahar va tumanlarda nuroniy jamaatchilik kengashlari, mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhlari tarkibi qayta ko'rib chiqilib, tajribali va tashabbuskor faxriylar ushbu jarayonga jalb etildi.

Joriy yilning o'tgan davrida nuroniy ishtirokida 5000 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbiri tashkil etildi. "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyiliga muvofiq, mahallalardagi 560 nuroniyga 5367



nafar uyushmagan hamda muammoli yosh va ijtimoiy muammosi bo'lgan oilalar birlashtirilgan holda, tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Nuroniy jamaatchilik yoshlardan qariyb sakson foizining hayoti izga tushdi, ularni qiyinat kelgan masalalarga yechim topildi.

"Nuroniy har bir oilaga mas'ul" loyihasi ham yaxshi samara bermoqda. Shu asosda muammoli 542 ta oilaga katta hayot tajribasiga ega 542 nafar otaxon va onaxon birlashtirilib, mavjud ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, oilalarni mustahkamlash choralarini o'tkazildi. Bu jarayonda hamkor tashkilotlar ko'magi ham katta bo'lyapti, ular bilan birgalikda 235 oila ajrashib ketishining oldi olindi. Targ'ibot ishlarini natijasida 359 oilada ijtimoiy barqarorlik ta'minlandi. Nuroniy jamaatchilik kengashi va mahallalardagi "Keksalar maslahati" guruhlari tomonidan 4458-marta jamaatchilik nazorati tadbiri o'tkazildi.

"Nuroniy" jamg'armasi tashabbusi asosida Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahri boshqarmasi va boshqa manfaatdor idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari muntazam tashkil etilyapti. Joriy yilning o'tgan davrida ushbu tadbirlarda yuz mingdan ziyod aholi, 74,5 ming yigit-qiz qamrab olindi.

Yoshlarni milliy urf-odat va qadriyatlariga sodiq holda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oyalarni ta'siriga tushib qolishining oldini olish ham doimiy e'tiborida. Shu maqsadda olimlar, soha mutaxassislari, nuroniy, imom-xatiblar va otinoyilar ishtirokida ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, ularga 42 mingga yaqin yosh jalb qilindi.

Joriy yilning o'tgan davrida 43 ming 500 nuroniy O'zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohatga bordi. "Nuroniy" jamg'armasi mablag'i hisobidan o'zgarlar parvarishiga muhtoj va yakka-yolg'iz 102 nafarining poytaxtimizdagi "Nuroniy" sanatoriysida bepul dam olishi uyushtirildi. 732 faxriy bepul sport mashg'ulotlariga jalb etildi. Homiylarni jalb qilgan holda 2390 nuroniyga reabilitatsiya vositalari, 3500 dan ziyodiga oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon berildi.

XIZMAT KO'RSATISH SIFATI VA QAMROVI KENGAYMOQDA

"Keksalar uchun turizm oyli"da ham bunday xayrli ishlar davom etyapti. Bu jarayonda davlat, jamoat tashkilotlari qatorida turizm yo'nalishiga ixtisoslashgan xususiy tadbirkorlik subyektlarining ham

hissasi katta bo'layotir. Farg'ona viloyatidagi "Mashhura travel" oilaviy korxonasi shulardan biri. Mazkur korxonaga rahbari E'ziza Rahmonovaning aytishicha, sayohat kompaniyasi har yili "Keksalar uchun turizm oyli"da faol ishtirok etadi va nuroniylarni yurtimiz bo'ylab sayohatga olib chiqadi. Joriy yil ham bir guruh otaxon va onaxonlarni Buxorodagi tarixiy qadamlarga olib borishga taraddud ko'rmoqda.

— Oilaviy korxonamiz faoliyat boshlaganiga olti yil bo'ldi, — deydi E'ziza Rahmonova. — Yurtimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan keng miqyosli chora-tadbirlar natijasida ishimiz ham olg'a silijiyapti. Joriy yilda xorijlik ikki yuz sayyohning yurtimiz bo'ylab safarini tashkil etdik. Ichki turizm yo'nalishida 25 mingdan ziyod aholining sayohati uyushtirildi.

Boy tariximiz, madaniy merosimiz, ajdodlarimizning yuksak salohiyatidan xabar beruvchi tarixiy obidalar, qadamjolar, ziyoratgohlar ta'mirlanib, go'zal qiyofa kasb etyapti. Shahar va qishloqlarimiz qaytadan chiroy ochib, zamonaviylashib boryapti. Albatta, hududlardagi bunday o'zgarishlar yurtidoshlarimizni qiziqitirishi, ularni sayohatga chorlashi tabiiy.

Prezidentimizning tegishli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" deb nomlangan ichki turizmni rivojlantirish dasturi aholining hududlarga sayohatini yanada rag'batlantirmoqda. Bu borada yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan xalqimiz, ayniqsa, keksa avlod vakillari qanday foydalanmoqda? Biz Toshkentda yashayotgan nuroniylarimizning bu xususdagi fikr-mulohazalarini yozib oldik.

O'zbekiston – turizm uchun eng xavfsiz davlat

Abduqahhor TO'LAGANOV,
Olmazor tumanidagi "Gulzor" mahalla fuqarolar yig'ini faoli, texnika fanlari nomzodi:

— Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning purnama no hikmatga to'la shoh baytlari bor. Men allomaning, ayniqsa, "Musofir bo'li, ammo Vatan ichra bo'li, Tila xilvatu anjuman ichra bo'li", degan misralarini tez-tez yod etaman. Bu satrlar har bir inson qalbid o'z Vataniga muhabbatni yanada yuksaltiradi. Ya'ni shoir talqinida Vatan faqat insonning kindik qoni to'kilgan zamin, mamlakat hududiga emas, balki ona xalq, uning ma'naviy madaniyati, tarixi, ona tili hamdir. Ko'p yillik pedagogik faoliyatim davomida yoshlarga ulug' siymolarning ana shunday purnama no hikmatlari zamiridagi yashirin ma'nolarni doimo uqitirib kelayman va bugungi kunda mahalladagi targ'ibot tadbirlarida ham bu ishlarni davom ettiryapman.

Yurtimizdagi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ana shunday ulug' ajdodlarimiz o'g'itilarga hamohang tarzda kechayotganini bizni juda quvontiradi. Birgina turizm sohasini olaylik. Bundan 10-15 yil ilgari mazkur tarmoq yaqin kelajakda iqtisodiyotimizning muhim tayanchiga aylanadi, deyishsa ishonmas edik.

Bugun O'zbekiston dunyoning sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda Jahon turizm tashkilotining Samarqandda o'tgan yirik anjumanida bu jihatlar ko'p bor e'tirof etildi.

Prezidentimizning o'sha tadbirdagi ma'ruzasini diqqat bilan eshitdim. Unda qayd etilishicha, joriy yilda mamlakatimizdagi jami 7 million sayyoh tashrif buyurishi

kutilayotir. Ushbu ko'rsatkichni 2030-yilga borib, 15 millionga, ichki turizm oqimini esa 25 millionga yetkazish reja qilingan. Tabiiyki, bu ishlar yurtimiz iqtisodiyotiga katta sarmoya kiritadi. Natijada turmushimiz yanada obod, hayotimiz to'kis bo'ladi.

E'tiborli jihati, O'zbekiston Jahon turizm tashkilotining "Eng tez rivojlanayotgan turizm maskanlari" ro'yxatida, shuningdek, mashhur "Gellap" ijtimoiy tadqiqot markazining "Sayyohlik uchun eng xavfsiz davlat" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Bu yangiliklar bir qarashda oddiy holatdek tuyuladi. Ammo qisqa yillar ichida shu qadar katta yutuqqa erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bularning barchasi e'l-yurt, Vatan manfaati yo'lida qilinayotgan fidokorona mehnat va mashaqqatli harakatlarning samarasidir.

Garchi pensiya yoshida bo'lsakda, biz, faxriylar ham yurtimizda kechayotgan ulkan islohotlarga o'z ulushimizni qo'shishni burchimiz deb bilamiz. Shu maqsadda "Mahalla" va "Nuroniy" jamg'armasi loyihalarida faol qatnashyapmiz. Yaqinda Buxoro viloyatida "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" loyihasi doirasida o'tgan tadbirda qatnashdik. Albatta, mazkur jarayonda mahalla va nuroniy bilan ishlash tizimidagi yangiliklar bo'yicha tajriba ham almashdik. Endilikda bu yangiliklarni mahallamizda tatbiq etib, xalqimizga nafi tegadigan tadbirlarni ko'paytiramiz.



YURGAN DARYO, O'TIRGAN BO'YRA

Fariza O'LTMASOVA,
Uchtepa tumanidagi "Bekobod" mahalla fuqarolar yig'ini faoli:

— Yoshim 61 da. Uzoq yillar tibbiyot sohasida ishladim. Bugun nabiralari tarbiyasi bilan bandman. Shu bilan birga, mahalla faoli sifatida bu tizimda islohotlarga baholi qudrat hissa qo'shib kelayotganimdan mamnunman. Zero, bugun mahalla xalqimizning, ayniqsa, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, bandlegini ta'minlash, oilalarni qo'llab-quvvatlashda yetakchi bo'lg'inga aylandi. Uch mingdan ziyod aholi yashaydigan mahallamizda ham shu yo'nalishda keng qamrovli ishlar qilinmoqda.

Xususan, bu jarayonda keksalarni e'zozlash, har bir xayrli ishni boshlashda ularning duosini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Yurtimizda nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha haftalik va maxsus o'yliklar o'tkazilayotgan mazkur ishlarning mantiqiy davomi bo'lyapti. E'tibor va g'amxo'rlikni biz ham juda qadrlaymiz, imkoniyatlardan oqilona foydalanishga harakat qilamiz.

Yaqinda tumanimizdagi bir guruh pensionerlar Samarqandga sayohatga borib keldik. Taassurotlarimiz bir olam, haligacha bir davraga yig'ilsak, ko'rgan-kuzatganlarimiz haqida gaplashamiz. To'g'risi, biz, ayollar bola-chaqa, ro'zg'or tashvishidan ortib, sayohatga borishga har doim ham hafsala qilavermaymiz. Ammo bugun ro'y berayotgan o'zgarishlarni endilikda faqat televizor yoki internet orqali ko'rishning o'zi yetarli emas. Yurtimizning yangicha qiyofasi va chiroy ochayotgan manzillarini o'z ko'zingiz bilan ko'rganingiz nima yetisil!

Sayohatlar o'zaro mehr-oqibat rishmalarini yanada mustahkamlaydi. Xalqimizning yurgan daryo, o'tirgan bo'yra, degan purnama no hikmatini bejiz aytillmagan. Zero, yurt kezzagan, safar qilgan insonning dunyoqarashi boyiydi, hayotga intilishi o'zgaradi. Bu, ayniqsa, keksa yoshdagi insonlarning uzoq va sog'lom umr kechirishi uchun juda asqotadi. Shu bois, nuroniyarga bu kabi sharoitlar yaratilayotgan behad mamnunmiz.

SUV SPORTI

ULKAN NATIJALAR SARI

Boshlanishi 1-betda

“Rimliklar barcha kasalliklardan suv yordamida davolanarlar, olti asr davomida ularda umuman tabiblar bo'lmagan”, deb yozadi Pliniy. O'sha paytlarda Rimda kuniga bir necha martadan cho'milish odat sanalgan.

Qadimgi hindlarda bunday hikmat bo'lgan: “Suzish va yuvinish kishiga 10 ta imtiyoz beradi: tiniq ong, bardamlik, tetiklik, sog'lomlik, kuch, go'zallik, yoshlik, poklik, toza rang va barno ayollarning e'tibori”.

Suzish, cho'milish slavyan xalqlari orasida ham ommalashgan. Ruslarning daryo muzini teshib cho'milish odati ko'pchilikka tanish. Ularning chiniqqari xorijliklarni doim hayratga solib kelgan.

shifokor Slonimlar mablag'iga 15 metri suzish havzasi va davolovchi solyariy qurilgan. Aynan shu hududda Turkiston Respublikasidagi birinchi suzish maktabi paydo bo'ldi. Maktabda turli yoshdagi 800 ga yaqin ayol-erkak suzishni o'rgangan. Bu maktabning tashkilotchisi va murabbiyi 1914-yilda AQSH-dan kelgan Sidney Lvovich Jakson edi.

1927-yilda ToshGRES suv omborida 50 metri suzish havzasi hisoblangan birinchi suv stansiyasi qurilishi yurtimiz sporti hayotidagi muhim voqea bo'ldi. Shu yilning yozidayoq Samara shahri suzuvchilari bilan uchrashuv uyushtirildi. Samaraliklardan biri — mazkur musobaqalar ishtirokchisi N.Tarasov Toshkentda qolib, suv sporti turlari bo'yicha yo'riqchi sifatida ishlay boshladi.



Pyotr I saroyida bo'lgan kamer-yunker Bexxols bunday yozgan edi: “Ruslar issiq hammomdan chiqib, mulloqo yalang'och holda muzdek suvga tashlanadi va o'zlarini juda yaxshi sezadi, chunki ular bolalikdan shunga o'rganagan”.

Suv sporti Yevropada ham ahamiyatli edi. O'rta asrlarda cherkov cho'milishini taqiblag qo'ydi. Suvdan uzqoqlashish ahliga juda qimmatga tushgan. Vabo, o'lat, terlama epidemiyalari katta-katta shaharlar aholisini qirib yuborgan. Biroq sog'lom fikr oxir-oqibat g'alaba qildi va roman-german mamlakatlarida zodagonlarning farzandlari bo'lgan bo'lajak jangchilarni jismoniy tarbiyalashda suzish o'qitish tizimiga kiritildi.

Uyg'onish davriga kelib, suzishga qiziqish yanada kuchayganini ko'ramiz. 1515-yilda Italiyada suzish bo'yicha tarixda birinchi musobaqa o'tkazildi. 1538-yilda esa suzishga bag'ishlangan ilk kitob dunyo yuzini ko'rdi, uning muallifi daniyalik N.Vinman hisoblanadi.

Yevropada suzishning yanada keng rivojlanishi uchun turki bo'lgan boshqa bir sabab Napoleon urushlaridagi jiddiy yo'qotishlar cho'kkanlar hissasiga to'g'ri kelishi bilan bog'liq edi. Shundan keyin suv sporti umumiy tarbiya yo'nalishi sifatida yanada ommalashdi.

O'zbekistonda suzishning sport turi sifatida paydo bo'lishi o'tgan asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. 1920-yilda Toshkent shahridagi hozirgi “Paxtakor” stadioni bilan Anhor kanali oralig'ida mashhur aka-uka

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin sportchilar, xususan, suzuvchilar terma jamoasi oldida ham katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Ular mustaqil O'zbekiston bayrog'i ostida alohida jamoa bo'lib, xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshladi.

1992-yilda O'zbekiston Suzish federatsiyasi tashkil qilindi, Shokarim Annazarov uning prezidenti etib saylandi.

1994-yilda O'zbekiston Suzish federatsiyasi teng huquqli a'zo sifatida xalqaro federatsiyaga (FINA), shuningdek, Osiyo suzish uyushmasiga (AASF) qabul qilindi.

O'sha yil iyulida V.Kabanov, O.Svetkovskiy, A.Agafonov, A.Galyautdinov, S.Vecherkindan iborat suzish terma jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy V.Petrov rahbarligida tarixda birinchi marta jahon chempionatida qatnashdi. Oktyabr oyida esa terma jamoa Yaponiyaning Xirosima shahrida bo'lib o'tgan XII Osiyo o'yinlarida birinchi marta ishtirok etib, erkin uslubda 4x100 metr estafetada bronza medallarni qo'lga kiritdi.

1995-yilda Navoiy tog'-metallurgiya kombinatining “Oltin suv” suzish markazi ish boshladi. O'zbekiston terma jamoasi Shri-Lankaning Kolombo shahrida yosh guruhlari o'rtasida bo'lib o'tgan IX Osiyo va Okeaniya chempionatida (2001-yildan boshlab yosh guruhlari suv sporti turlari bo'yicha Osiyo chempionati) qatnashib, 8 ta oltin, 7 ta kumush va 5 ta bronza medal sohibi bo'ldi.

1996-yilda terma jamoamiz Tailandning Bangkok shahrida o'tgan VI Osiyo chempionatida qatnashib, 1 ta oltin, 1 ta kumush hamda 3 ta bronza medalga erishdi.



onatida qatnashib, 1 ta oltin, 1 ta kumush hamda 3 ta bronza medalga erishdi.

2001-yilda O'zbekiston suzuvchilar terma jamoasi yosh guruhlari o'tkazilgan suv sporti turlari bo'yicha I Osiyo chempionatiga bordi (XXR, Gonkong). Bu musobaqada terma jamoa 10 ta oltin, 7 ta kumush hamda 6 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

Jamoamiz XXRning Juxay shahrida 2002-yilda suv sporti turlari bo'yicha II Osiyo chempionatida 14 ta oltin, kumush va bronza medal sohibiga aylandi.

Solnomalarga e'tibor qaratsak, suv sportidagi xalqaro natijalarimiz yildan-yilga o'sib borganiga guvoh bo'lamiz.

CHINIQQISH VA TAYYORGARLIK — YARIM G'ALABA

Joriy yilda Xitoyning Xanchjou shahrida bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida erishilgan natijalar suv sportimiz yana bir pog'ona ko'tarilganini isbotladi. Oldinda turgan navbatdagi dovon — Parij Olimpiadasi. Aynan mazkur musobaqada yuqori natijalar qayd etish Vatanimiz sharafiga yuksaltirish barobarida o'zbek suv sportining yangi davrini boshlab beradi.

Xo'sh, tayyorgarliklar qanday kechmoqda?

Bu haqda Yoshlar siyosati va sport vazirligi tasarrufidagi Suv sporti turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktabi direktori o'rinbosari Azizjon Hojiyev bunday deydi:

— Xanchjou — 2022 Osiyo o'yinlarida terma jamoamiz erishgan yuqori natijalar suv sportiga qaratilayotgan e'tiborning natijasi, shuningdek, sportchilarimiz salohiyatining yangi bosqichga chiqqanini isbotladi. Endi oldimizda turgan asosiy vazifa Prezidentimizning 2021-yil 5-noyabrda qabul qilingan 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida”gi qarori asosida mazkur nufuzli musobaqaga munosib tayyorgarlik ko'rishdir.

Qarorga ko'ra, terma jamoa a'zolarini yil davomida muntazam tayyorgarlik jarayonlariga jalb etish belgilangan bo'lib, hozirgi

kunda sportchilarimiz Toshkent dengizi eshakk eshish sport bazasida akademik, baydarka va kanoeda eshakk eshish turlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazmoqda. Bundan tashqari, paraakademiya va parakaneo bo'yicha ham sportchilarimiz qizg'in tayyorgarlik jarayonini davom ettirmoqda.

Suzish yo'nalishida mashg'ulotlar Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o'tkazilmoqda. Suv polosi yo'nalishida Beruniy tumanida joylashgan suv sporti saroyida tayyorgarlik ko'riylapti.

Sportchilarimizni tayyorlash uchun nafaqat mahalliy, balki ko'plab xorijiy murabbiylar jalb etilgan. An'anaga muvofiq, sportchilarimizning tayyorgarlik mobaynida boshqa milliy hamda xalqaro musobaqalarda ishtiroki ta'minlab kelinmoqda.

Terma jamoa a'zolarining mashg'ulotlar jarayoniga ilg'or texnologiyalarni jalb etish, shuningdek, ularni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish tizimi ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda paralimpiya sportini izchil rivojlantirish bo'yicha harakatlar jadal davom etyapti. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan sportchilarimizning faoliyati har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.



Shuningdek, hujjatda Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari ishtirokchilari orasida ayollar ulushini oshirish belgilangan. Bundan asosiy maqsad sportchilar orasida gender tenglik masalasiga e'tibor qaratishdir.

Bugungi kungacha Parij Olimpiadasida ishtirok etish uchun suv sporti yo'nalishida 3 sportchimiz — parakaneo bo'yicha Azizbek Abdulhabibov, Hayitmurad Sherqoziyev, suzish bo'yicha esa Islom Aslanov litsenziyalarni qo'lga kiritgan.

Hali Parij Olimpiadasiga yo'llanma beruvchi asosiy musobaqalar oldinda. Nasib bo'lsa, sportchilarimiz yana ko'plab litsenziya oladi.

“BUTUN DIQQAT-E'TIBORIM PARIJ OLIMPIADASIDA”

Alisher Turdiyev akademik eshakk eshish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. U bugungi kunda qizg'in tayyorgarlik mashg'ulotlarida qatnashmoqda.

— Suv sportiga qiziqish yoshligimdan boshlagan. Bu sport turi haqidagi dastlabki tarbiyani jonkuyar murabbiy Kamoliddin Rahmatovdan olganman, — deydi Alisher. — Bolaligimdan ulkan kemalarga, qayiqqlarga qiziqishim kuchli edi. Birinchi bor qayiqda bellashayotgan sportchilarni ko'rib, shu sport turini tanlashga qaror qilganman. Akademik eshakk eshish bilan shug'ullana boshlaganimga 10 yildan oshdi. Berilgan imkoniyatlar hamda harakatlarim tufayli bugungi kunda 4 karra Osiyo chempioni bo'ldim. 2018-yildagi Osiyo o'yinlarida savzor bo'lgan kumush hamda joriy yildagi XIX Osiyo o'yinlarida qo'lga kiritgan oltin medalim alohida qimmatli. Hozir butun diqqat-e'tiborimni Parij Olimpiadasida qatnashib, unda yuqori natija qayd etishga qaraganman. Albatta, erishgan natijalarimiz hamda kelgusidagi maqsadlarimiz amalga oshishida yaratib berilayotgan imkoniyatlarim ahamiyati katta. Xususan, asosiy qurolimiz hisoblangan qayiqqlar zamonaviylariga almashtirib berilishi bizga katta ko'mak bo'ldi.

MUSTAHKAM IRODA — YUKSAK MARRALAR GAROVI

Azizbek Abdulhabibov Parasiyo o'yinlarida oltin medal sohibi bo'ldi. Imkoniyatining cheklangani uning ozurlarini cheklab qo'ya olmadi. Shijoatini ko'rib, havas qiladi kishi.

— Suzishni yaxshi ko'rishim meni bu sportga boshlab kelgan. Nafaqat suzish, suv sportining boshqa turlari ham meni bolaligimdan qiziqtiradi, — deydi sportchi. — Aynan ustozlarimning e'tibori, ota-onamning g'amxo'rligi bu sport turida professional faoliyat yuritishimga imkoniyat yaratib berdi. Cport irodamni mustahkamlashda juda katta o'rin tutgan. Hayotga, yashashga muhabbatimni aynan shu tufayli topganman, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Mag'lubiyat sportchiga shijoat bag'ishlansa, g'oliblik siz jamiyat uchun kerakli inson ekaningizni eslatadi. Shu paytgacha ko'plab musobaqalarda qatnashib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayapman. Jumladan, Parasiyo o'yinlarida oltin medalga savzor bo'lib, Parijga yo'llanma oldim. Bu ulkan mas'uliyat yuklaydi. Nasib etsa, dunyoning eng nufuzli musobaqasida ham oltin medal olib, yurtimiz dong'ini yanada yoyishga hissa qo'shaman.

MASHAQQATNING MEVASI

Anvar Klevleyev slalomda eshakk eshish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. U ham terma jamoaning ittixorlaridan biri.

— Suv sporti eng sevimli mashg'ulotimga aylanib ulgurgan. Boshqa sport yo'nalishida o'zimizni tasavvur qila olmayman, — deydi A.Klevleyev. — 2009-yilda eshakk eshish bilan shug'ullanishni boshlaganman. O'zbekistonda suv sporti bo'yicha murabbiylarning katta maktabi shakllanib ulgurgan. Sportchining yutuqlari yaratilgan sharoitlar hamda murabbiylarning tajribasiga ko'p jihatdan bog'liq. Yurtimizda mazkur sport turini tanlagan yoshlar uchun bu imkoniyatlarning ikkalasi ham mavjud. Ulardan foydalanib, yaxshi natijalarga erishib kelayapman. Yaqinda bo'lib o'tgan XIX Osiyo o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritganim menda alohida faxr uyg'otadi. Maqsadim — Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib javob berish, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish, muhimi, jonkuyar murabbiylarimning mehnatlarini yuzaga chiqarish.

Salomatlik garovi hisoblangan suv sporti rivoji, u bilan shug'ullanuvchi yurtdoshlarimiz ko'payib boshishi jamiyatimiz imigi uchun ijobiy hodisa, desak adashmaymiz. Aynan shu sport turi orqali O'zbekiston nomini jahonga tanitish umummilliy yutug'imizdir. Zero, mamlakatni hech narsa sportchilik dunyoga tez tanita olmaydi.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

DAVR NAFASI

MILLIY MENTALITET VA YOSHLAR

Mustaqillikdan keyin jamiyatning barcha jabhalari kabi ijtimoiy-madaniy sohaga ham katta e'tibor qaratildi. Binobarin, ijtimoiy-madaniy faoliyatda milliy mentalitetning o'rni beqiyos.

Yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi bu sohaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi. Buni mamlakatimizning yaqin o'tmishidagi tarixiy yo'li misolida ko'rishimiz mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash davr talabidir.

Yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib yetish muhim.

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bunda biz mamlakat va millat o'laroq tanlagan yo'l huquqiy demokratik jamiyat tuzishi yo'lidir. Yolg'ondan, nomigagina emas, Prezidentimiz tashabbusi bilan chin va haqiqiy huquqiy demokratik jamiyat barpo etishni tanladik.

Yangi avlod boshqaruv kadrlarini — yuksak tafakkurga ega, ma'nan yetuk hamda keng mushohadali yoshlarni davlat boshqaruvi tizimiga olib kelish siyosati shu bilan izohlanadiki, taraqqiyotning yangi bosqichiga mamlakatni faqatgina korrupsiyaga murosasiz, fikr doirasini keng, demokratik qadriyatlarini his qila olgan shaxslar olib chiqadi. Aslida, eng buyuk ma'naviyat inson hurriyatini ta'minlashdir.



Bugun milliy ma'naviyatimizni qaytadan idrok etib, uni chuqurroq tanib, yangi mil-

liy mafkuramizni shakllantirish vaqti keladi. Ma'naviyat targ'iboti asosi — yadrosi

adolatdan va insonparvarlik tamoyilidan iborat bo'lishi kerak. Milliy mafkura esa millatni yashatadigan, bo'g'maydigan, gullatadigan, gullarini qirqmaydigan ma'naviyat targ'iboti orqali amalga oshirilishi zarur. Qachonki, millat ziyolilari fikrati xilma-xilligi va sog'lom munozaraga o'rgansa, mamlakatda chin ma'noda ma'naviy yuksalish bo'ladi.

O'zbekistonning ulkan salohiyati hal qiluvchi kuch sifatida ijtimoiy hayotga kirayotgan, zamonaviy bilim va kasb-hunar sirlarini puxta egallagan, navqiron yosh avlod timsolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ilm-fan va ta'lim vakillariga, yosh olim va umuman, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar sababli bugun yurtimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bunday e'tiborga loyiq bo'lish har birimizga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish,

milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va etlatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish muhim vazifa hisoblanadi.

Xususan, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarni shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan himoyalash, har bir insonning ruhiy olamida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya sifati va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirishda, birinchi navbatda, yoshlarga ma'naviy, g'oyaviy, bilim va tarbiya berish hamda jamiyat manfaatlariga zid, zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy imunitetni yuksaltirish muhimdir.

Xalqimizning qadimiy an'analari, azaliy urf-odat hamda marosimlari o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentalitetga ega ekanimizdan dalolat beradi. Milliy tariximizni tiklash, boy imkoniyatlarini izlab topish, xalqimiz, yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish yurtimiz nufuzi yuksalishiga, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy dunyosi boyishiga xizmat qiladi.

Abduqahhor RAHMONOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori o'rinbosari, falsafa fanlari doktori



G'AFUR G'ULOM TAVALLUDINING 120 YILLIGI

AKADEMIK SHOIRNING

tun bilan tongi

Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri

Mamlakat rahnamosi katta anjumanlardan birida zamonamiz yoshlari — aziz o'g'il-qizlarimizga murojaat etarkan, akademik shoirimiz G'afur G'ulomning atashin satri...

Siz axir osmonni olmoq bo'lsangiz, Ne uchun yelkanni tutib bermayin?

Davlat minbaridan yangragan ikki satr she'rning ta'sir kuchi va tarbiyaviy qamrovi, shak-shubhasiz, beqiyos bo'ldi. Iqtibos asnosida "akademik shoirimiz" iborasiga alohida urg'u berarkan, Prezidentimiz, avvalambor, o'zbek adabiyotiga, ustoz adiblarimiz nomi va ijodi...



Davlat minbaridan yangragan ikki satr she'rning ta'sir kuchi va tarbiyaviy qamrovi, shak-shubhasiz, beqiyos bo'ldi. Iqtibos asnosida "akademik shoirimiz" iborasiga alohida urg'u berarkan, Prezidentimiz, avvalambor, o'zbek adabiyotiga, ustoz adiblarimiz nomi va ijodi...

Biz yangi O'zbekistonimizning yangi tong-otar davrini, shiddatli uyg'unlashish pallaslarini boshdan kechirmoqdamiz. Mudroq tuyg'ular, yalqovlik bilan toqaydlik bu davrga mutlaqo yot, olib borilayotgan ochiq-oydin siyosat, jahon sahnida, manaman degan dunyo davlatlari bilan bab-baravar bo'ylashib, ular ishtiroki va hamkorligida kechayotgan jo'shqin ijtimoiy-siyosiy hayot ona Vatanimizning yangi tongotarlari g'oyat fayzli va barakali bo'lishidan mujda berayotir.

Yoshlik — o'z nomi bilan yoshlik, yigitlik — o'z azmu shijoati bilan yigitlik. Lekin ustoz aytganiday, yoshlik ekan deb bir umr lallayib, laylak haydab o'tib ketaverish ham mumkin. Shuning uchun ham tinimsiz bilim, ta'lim deyilayotgani bejiz emas. Zero, asovdaryo umrning jilovini to'g'ri o'zanga solish uchun ham aynan bilim va yuksak iqidoh kerak bo'ladi. Hazrat bobomiz ham aytib ketganlar: "Yigitlikda yig' ilmining maxzani, Qarilg' chog'ida xarj qilg' il oni".

Modomiki, gap "tong bilan shom", "tun bila tong", "tong" va "tongotarlari" xususida ketar ekan, barcha shoirlarimiz ijodida ushbu mavzuning keng ramziy ko'lam va qamrov kasb etganini, bu iboralarga salmoqli timsoliy ma'nolar yuklanganining guvohi bo'lamiz. Mavzuni XX asr o'zbek adabiyotining yirik va zabardast namoyandasi, donishmand shoirimiz G'afur G'ulom ijodidan olingan tamsillarga ko'chirishdan oldin mumtoz adabiyotimiz, aniqrog'i, Alisher Navoiy bobomizning asarlariga murojaat qiladigan bo'lsak, u benazir zotning butun umri, bor ijodiyoti tong bilan shom, tun bilan kun, kecha va kunduzlarining iztirob va sog'inchlari, ranj bilan zahmtatlaridan iborat ekanini ko'ramiz. Shu bois, mashhur g'azalida keltirilgan "Ko'zlariga kecha tong otguncha uyqu kelmadi" satridagi "kecha" so'zi "bir umr" degan yangilig' taassurot qoldiradi.

Darhaqiqat, Navoiy hazratlari yana bir g'azalida mavzuni chuqur olib, ayovsiz va beshafqat misralarni bitadi: "Tunga yetmas kunning o'tkardim o'lib hijronida, Kunga yetgaymanmu, vah, bu subhi yo'q shomim bila. Nima deysiz, nima deya olasiz? Hech narsa deya olmaymiz, "tunga yetmas kun" qarshisida, "subhi yo'q shom" oldida zor-u notavon qolaverasiz.

Sa'diy Sheroziy "Nasihatnoma"sida shunday satr bor: "Az subh hamisha jonibi shom ravem" ("Biz hamisha tongdan shom tomonga qarab boramiz"). Bir paytlar ustoz Erkin Vohidovdan "Tafakkur" jurnali uchun mo'ljallangan suhbatimizni shu satr bilan boshlasak, qanday? deb so'raganimizda, ustoz lutf qilib, "Keling, shom haqida gaplashmay qo'ya qolaylik, tong haqida suhbatlashganimiz durust", deya gurungni yorug'likka qarab burgan edi.

Ustoz G'afur G'ulom she'rularida alohida mehar bilan tilga olinib, eng ko'p uchraydigan bir juft so'z borki, bu "tong" va "tongotar"dir. "Sen

yetim emassan"dagi "Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin" satriaridan boshlab, to umrining serziliza poyonigacha — garchand o'z zamonasidan ko'p mehru muruvvatlarga sazovor bo'lgan esa-da, dardchil va behalovat shoir umrining tiyra shomiga qadar qandaydir boshqa bir tongdan umidvorday, boshqa bir tong, qanaqadir o'zga bir tongotarga ilhaq va muntazir o'tganday.

"Qizil O'zbekiston" gazetasining 1948-yil 15-may sonida chop etilgan Navoiy bobomizga bag'ishlangan "Alisher" manzumasida o'qiyimiz:

Duraxshon yulduzlar sari o'kirgan, Bo'ynida janjiru qalbi ozod sher. Insoniy muhabbat mehri-la vafo, Erku baxt timsoli ulug' Alisher.

Hirof tongotarini tasavvur qilib, Yigitlik umringning kamolini ko'rdim: Qarigan chog'laring qaro shomida Xuroson o'lkasini zavolin ko'rdim.

Ana endi tasavvur qiling: Shu joyda "Bo'ynida janjiru qalbi ozod sher" — G'afur muallimning o'zi "duraxshon yulduzlar sari o'kirgan"day bo'lib tuyulmayaptimi? Qarilning qaro shomida Xuroson o'lkasi emas, balki yemirilishi muqarrar boshqa bir mustabid tuzum, o'zga bir imperiyaning zavoli ko'rinmayaptimikan?.. "Men odam edimku, inson farzandil!" "Bu — yetim G'afurning malomat bandi" deb yozarkan ustoz Abdulla Oripov "Malomat toshlari" she'rinda, ulug' shoiring faqatgina bolalik — yetim-yesirlikda kechgan xor-u sargardon pallalarinigina nazarda tutmagandir?..

Millatning daho shoiri sifatida G'afur G'ulom uchun o'zbek she'riyatida yangi avlodning paydo bo'lishi nihoyatda muhim va kutilgan tabiiy hol edi. Bu paytga kelib, (XX asrning 60-yillari boshi) Nikita Xrushchov siyosatining ilimlilik (ottepel) davri tanazzulga yuz tutgan, Moskvada mamlakat ziyolilari vakillari, yosh ijodkorlar bilan bo'lgan uchrashuvda Andrey Voznesenskiy, Yevgeniy Yevtushenko, Ernest Neizvestniy singari shoir-rassomlar toza "do'pposlanib", siyosat mutlaqo teskariga qarab ketgan noxush va tahlikali bir davr — gurillab chiqib kelayotgan ijodkorlarga ta'qib va tazyiq kundandun kuchayganidan-kuchayib borar edi. Bu holat, tabiiyki, mustabid sho'r changalidagi mahalliy respublikalarning yosh ilg'or ijodkorlarini ham chetlab o'tmagan. Bizning adabiyotida ilk tazyiq katta Erkin aka bilan Abdulla akaning boshida aylanar, bu dilgir manzaralar ustoz adiblarimizni xavotirga solmay iloji yo'q edi. Birinchi bo'lib domla Abdulla Qahhor imdod qo'lini cho'zganini adabiyot muhiblari yaxshi biladi. She'rilaridan epigraf olish bahonasida, bularga ega chiqib, balogardonlik qilgani, shu yo'sinda chiroyli tarzda keng jamoatchilikni ham hushyor torttirgani endi kulgili ko'rinadi. Lekin o'sha qattol siyosat iskanjasida katta ustozlarning bu xatti-harakati jasorat bilan

teng bo'lganini zamondoshlar yozib qoldirgan. U kunlarni eslarkan: "Bizning boshimizda sinmagan, bizni kaltaklamagan faqatgina bolalar bog'chasining tayog'i qoldi, xolos", deya Abdulla aka keyinchalik o'kinch va zaharxanda bilan gapirib bergan edi.


Ustoz Erkin Vohidov "G'afur G'ulom bilan uchrashuvlar" nomli xotiralarida keltiradi:

"G'afur G'ulom dard, iztirob tuyg'ularini ham yozgan shoirlarning boshiga tushgan falokatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan adib edi. Shuning uchun yoshlarni ham bu xil she'rlar bitishdan qaytarishga urinardi. Azbaroyi ularni ehtiyot qilish, nayzabozlardan saqlash uchun ham shunday qilar edi. Ustoz 1963-yilda Gulchehraxon bilan mening nikoh to'yimda qatnashib tabriklagan. So'z orasida: "Mana, yig'lab-siqtab xotinlik bo'lib ham olding, endi o'ldim-kuydim degan she'rlarni yozmassan", degandi. Bu gap o'sha kezlari mening ba'zi she'rlarim ko'p majlislarda, matbuotda yig'loqi, tushkun ruhda yozilgan deb tanqid qilinib turganiga ishora edi".

Abdulla aka ham G'afur G'ulom haqida gap ketganda, o'zaki gurunlardan birida qiziq bir voqeani naql qilgani yodimda (Azbaski, men shu ikki ustozim bilan ko'p muluqotda bo'lganim, ularning mehri va e'tiboridan bir qadar bahramand bo'lganim uchun urg'uni, asosan, shu ikki qadrlir nomga qaratayotganimdan aziz o'quvchi hayron bo'lmas, degan umiddaman). Bu voqeani ustoz biron-bir joyda yozma shaklda bitib qoldirganmi-yo'qmi, bilmayman, esdaliklarida ham tilga olganidan bexabarman.

"Bir kuni meni G'afur G'ulom o'z uyiga chaqirib qoldi, — deya gurun bergan edi Abdulla aka. — Qimtinib-tortinib bordim. G'afur G'ulomona ustulda u yoqdan-bu yoqdan bir narsalarni so'raganday bo'ldi. O'zi ko'p gurunlashganim yo'q. Bitta-yarim she'rlarimni so'raganday bo'ldi. Keyin bir gap aytdi: "Sen bilan tarbiyaviy soat o'tkazishimni aytishuvdi. Nimaiki ko'nglingdan chiqadigan bo'lsa, yozib qoldirovur. Har kimning ham gapiga quloq solaverma. Faqat... mabodo, bitta-yarimni so'raganday bo'lsa, "G'afur G'ulom men bilan tarbiyaviy soat o'tkazdi", deb aytishni esingdan chiqarma. Bo'пти, borovur!.."

Bu gaplardan olti-yetti yillar o'tgandan keyin Yozuvchilar uyushmasida "Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim" va boshqa "tushkun, yig'loqi ruhda" she'rlari uchun muhokama qilinib, rosa tanqidga uchrashini hali ustoz ham, shogird ham shu



asnoda bilmas edi. "Partiyaga suyaning, partiya!.." degan "yo'l-yo'riqlar" endi haddan tashqari baxkana va kulgili tuyuladi.

Gap shundaki, yangi navqiron avlod adiblari timsolida G'afur G'ulom ham, Abdulla Qahhor ham yangi o'zbek adabiyotining yangi tongini — yaqin kelajagini ko'rmoqda edi.

Shu ma'noda, qabohat zamonlarining bor yo'qotishlaridan zada bo'lib kelgan, mustabid tuzum ezib, majaqlab tashlagan keksa ustozlar qalbidan bu yoshlar yangi hayotbaxsh tongotarlari timsoli bo'lib, katta umid va ishonch uyg'otar, shu bois, ularni asrab-avaylash ulug' adiblarimiz uchun burch va vijdon ishi, ma'lum ma'noda, vijdon tasallisi ham bo'lgan deb o'ylash mumkin.

1966-yilning 25-aprelida (mash'um zilziladan bir kun avval) Dushanbe safaridan qaytayotganda samolyotda yonma-yon o'tirib kelgan Erkin aka G'afur boboga qimtinibgina bir savol beradi. "Samolyotda o'zingizni qanday his qilaysiz?" deganda javob ham



shunga yarasha bo'ladi. Ya'ni "Samolyotning biror mixi o'zini qanday his qilsa, men ham shunday", deb javob beradi G'afur muallim. Hazilomuz bo'lsa-da, akademik boboning javobida bir achchiq haqiqat yashirganini ilg'ash qiyin emas. Butun umri yerda, osmonda — uzluksiz safarlarda sarf bo'lgan, bir zum bo'lsa-da orom, halovat nimaligini bilmagan zahmatkash adibning o'z kechgan umriga achchiq zaharxandasi edi bu.

"Sen yetim emassan" she'rinda: "O'talik hissining bebaho, laziz to'qinlari ichra g'arq bo'lib ketib, aziz boshing uzra termulmoqdaman", deya lutf etilganiday, ulug' shoirimizning oilaparvarlik, bolasevarlik, mehr va muhabbat tuyg'ulari yaxlit mujassamini topgan hayoti va ijodi necha bir avlodlarga ibrat maktabi bo'lgulik darajada sarmazmun, mushfiq va fidoyi bir otaning mehru muruvvati, vafo va sadoqat timsoli bo'lib hozir ham balqib-nurlanib turibdi. Beixtiyor ustozga qo'shilib baralla izhori dil qilgiz keladi:

Vafoning oq yo'li shuncha uzunmi, Sochingda munchalar oq ko'p, Muharram? Ishqingda kezganing tongotarlarni O'rab olgandirsan, shu durrang ko'r'kam.

Tun bilan tong haqida gapirilar ekan, Alisher Navoiy bobomizning "Badoe' ul-vasat" ("O'ra yosh go'zalliklari") devoniga kiritilgan 363-raqamli "tun bila tong" radifi g'azaliga to'xtalib o'tmoq joiz deb o'ylaymiz. G'azal umrning o'rtalarida yozilib, yuqoridagi devonga kiritilgan, aruzning qiyin bahrlaridan bo'lmish muhtasham bahringning muhtasham musammami maxbuni maqsur vaznida bitilgan.

Hazrat Navoiyning ummonday chayqalib to'lib-toshib yotgan shuncha asarlari orasida nima uchun aynan shu g'azaliga G'afur G'ulomning alohida diqqatini tortganini endi-da anglaganday bo'lyapmiz. G'afur domlaning eng ko'r'kam muxammasslaridan biri (yakka-yu yagonasi desa ham bo'ladi) shu g'azalga bitilgan. Taxmis ham, uning satriari aro silqib turgan dardu g'am, ranju iztirob, alam va pushaymon alohida tahlil va tadqiqotni talab qiladi, albatta. Hozircha keltirilayotgan ikki parchadan o'zingiz o'qib, xulosa chiqarishingiz mumkin:

Mening qarog'imu oning jamoli tun bila tong, Mening zavolim u oning kamoli tun bila tong, Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bila tong, Mening firoqimu oning visoli tun bila tong, Bu nav dahrada yo'q ehtimoli tun bila tong.

Nechuk tushuntira oldim buni gumon eliga, Hamisha ishqini qiliuvchi imtihon eliga, Ki bimi ikki deyib bo'lmag'ay zamon eliga, G'arib, zulfu yuz ermas bukun jahon eliga: Ko'rinnamish bu ikkingin misoli tun bila tong.

G'afur G'ulom, shak-shubhasiz, o'z davri, o'z zamonasining shoiri edi. "Zamon kuchisi" bo'lsa-da, o'sha davrda har qanday xalqning har qanday shoiri ham o'z milliy she'ri va ovozi bilan Kremning muhtasham qasrlarini zabt eta olish mavqei va obro'-e'tiboriga ega bo'lmagan. "Kremli saroyida minbaridagi o'zbekman!" satriini eslar ekan: "Biz uchun hozirgi kunda "o'zbek" iborasi azizdir! — deydi Abdulla aka so'zboshi-maqolasida. — Vaqt ko'rsatdiki, haqiqiy ijodkorning o'rmini, xotirasini turli minbarlardagina emas, xalq qalbidan axtarmoq kerak ekan".

orasida, aytish mumkinki, umri so'ngida bitilgan, ikki-ikki yarim betgina shu izhori dil — u zotning eng go'zal asarlari qatoridan munosib joy olishga arziydigan, mehr va sadoqat ulufurib turgan yuksak maqomdagi chinakam ijod mahsuli sanaladi.

Bevafo umr ekan, o'tdiyu ketdi, Suvga qalqib borgan qizil olmaday, Tong o'tdi, kun o'tdi, oqshom ham o'tdi, Shu fursat mazmunin shimay holvaday.

G'afur boboning jo'shqinligi ishtiyiqini ko'ring, zavqu shavqiga, tasvirning tozaligiga e'tibor bering:

"Tunov oqshom Anhor qirg'og'ida bitta obi nonni uvitib, botib borayotgan quyoshning suvdagi mayda to'qinlarida jilvalangan shu'lasiini kuzatib o'tirar edim. Yuz qadamcha narida, utta qirg'oqda, majnuntol tagida bir juft qumriday kukulashib o'tirgan bir juft yoshga ko'zim tushib qoldi. Sanni Xudo, juda havasim keldi... Agar manov sho'x qiz o'z yigiti qulog'iga shivirlagan so'zidan chorak jumlasini menginaga shivirlasa, agar shu ikki navjuvon o'z kulgidaridan ikki pardasini menga hadya qilsalar, 72 bandli she'ri shu oqshomda sayrab turgan to'rg'ay tinguncha yozib berardim. Ana shu katta she'r'dan naqdgina bir g'azal shu bo'ldi...".

Bu dilbar tilaklar gazetada bosilgach, oradan bor-yo'g'i yigirma kuncha o'tar-o'tmay, "zo'r karvon yo'lida yetim bo'taday, intizor ko'zlarida halqa-halqa yoshi" qoldirib, G'afur bobo tiriklar dunyosi bilan mangu xayrlashdi. "Xalq uchun G'afur G'ulomning vafoti katta balli zilzila bo'ldi", deb yozadi keyinchalik Olmos opa o'sha kunlarni xotirlab. Bir jaydari haqiqat shundan iboratki, shuncha qizg'in ijod, dunyo-dunyo nazmiy-nasriy asarlarni yozgan alloma shoirimiz ichidagi asosiy gaplarni aytolmaganday, G'afur G'ulom bilan birga u kishining ichida, yuragida boshqa bir G'afur G'ulom — bundan ham zo'r, bundanday buyukroq, bundan ham ulug'vorroq G'afur G'ulom ul ulug' zot bilan birga ketganday tuyulaveradi...

"Toshkent oqshomi"ga bag'ishlangan porloq g'azallariga ko'p yillardan buyon havas qilib yurardim, havasim sog'inchga aylanib, minnatdor shogirdlar nomidan ushbu mashq-muxammassni ulug' ustodning xotirasiga niyat qildim.

SIZGA IN'OMIM MENING G'afur G'ulom g'azaliga muxammas

Bu Vatani nom bilandir tinchu oromim mening, Tongi ham shomi meningdir, tong bila shomim mening, Dilbaru dilkash, dilroyu diloromim mening, O'tashin ishqidan to'liqdir doimo jomim mening, Soyadek yonimda yondosh do'stim — ilhomim mening.

Hech bir osmon yulduzi yulduzlariday zo'r emas, Soylarining mavjiday hech suv dilimga jo'r emas, Non ushog'in ko'zga surtay, ki elim nonko'r emas, Shom quyoshin shu'lasidan bu to'qilgan to'r emas, Zar baliqlardan umidvor tashlagan domim mening.

So'zni gul yanglig' sevishni O'zi bermish menga Haq, Shul sababdan har so'zim gulrangu dil goniga g'arq, Bunda har gul bargi ko'nglim daftaridan bir varaq, Bu g'azalni yodlab olu gulni uz, chakkanga taq, Mingta oshiq, mingta ma'shuqlarga in'omim mening.

Men aziz insonlarimning dog'ini xo'p kuyladim, Qildi davron goh malomat, goh taloto'p, kuyladim, Men juda ko'p o'yladim ham men juda ko'p kuyladim, Umrning tongin, kun o'rta chog'ini xo'p kuyladim, Nurlil misralarni kutgay baxtili oqshomim mening.

Bir ko'nglingni mehri yetgay gohi ming ko'ngilgacha, Bir umrlik sayru gashli asli bir sohilgacha, Kim yetib-yetnabdi kim sen ko'zlagan manzilgacha, Yuzga kirmak mo'ljal olsang, sabr qil yuz yilgacha, Qirg'o'g'il qizga bitidir gul-gulandomim mening.

Kelgusi yuz yilgi avlodlarga bu sizdan salom, Toki nazmim bor ekandir, bu bilim bo'lmas tamom, Bu charog'istonda men ham bir Sirojman, vassalom, Toshkent oqshomin yozish niyat edi, xullas kalom, She'r yozmoqqa farang G'afur G'ulom nomim mening.